

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
2025 yil 29-avgust

**“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA’LIM
TIZIMIDAGI ISLOXOTLAR” FANIDAN**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Mutaxassisligi:	Birinchi bosqich magistratura mutaxassisliklari

Fan /modul kodi YO‘TSTTI1105 YO‘TSTTI1205		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1/2	ESTS – Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar	60	90	150
2	I.Fanning mazmuni: Ushbu dastur Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar fani bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish masalalarini yoritish nazarda tutilgan. Fanning vazifasi – Talabalarga Vatanimiz tarixining bugungi kunda islohotlari tarixiy jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini davriy ketma-ketlikda o‘rganish; Talabalarda xalqimizning madaniy, ma’naviy merosiga, ilg‘or an‘analari, milliy qadriyatlari, ahloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg‘ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo‘lishni tushuntirish; Yangi taraqqiyot bosqichlari tarixiy voqealarni o‘rganish, ularni ahamiyatini tahlil qilishda birlamchi, asl manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish; Yangi taraqqiyot bosqichlari jarayonida ta’lim sohasidagi islohotlarni organish, ularni ahamiyatini tahlil qilish ko‘nikmasini xosil qilish; Mustaqil va ijodiy, tanqidiy-tahliliy fikr yuritish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan chiqishning muqobil variantini tanlay olish ko‘nikmasini shakllantirish. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:			

1-mavzu. Kirish. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohatlar” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohatlar, uning, maqsad, o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari, taraqqiyot strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati.

2-mavzu. Istiqlol yillarida O‘zbekistonda ta’lim tizimi

Sovet ta’lim tizimi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi yangi qonun, xarakatlar strategiyasi, ta’limdagi tizimli o‘zgarishlar, real tarixiy sharoitni aks ettirish qonuniyatlari, adabiyotlarni tadqiq qilish metodikasi va uslubni belgilab berish.

3-mavzu. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining umumiy mazmun-moxiyati

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sinh sur‘atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

4-mavzu. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish

Inson huquqlari bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni sifat jihatdan yangilanishi, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institusional asoslarini zamon talablariga moslashtirish, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimida ma‘muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish, mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta’minlash, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.

5-mavzu. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, Qonun ustuvorligi va konstitusiyaviy qonuniylilikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash Qonun ustuvorligi va konstitusiyaviy qonuniylilikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash, Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'yektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish, Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish, Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash, Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish.

6-mavzu. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlarini taminlash

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish, Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko'rish.

7-mavzu. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz

fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash. Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish.

8-mavzu. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish. Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish. Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash. Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish. O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.

9-mavzu. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish

Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish. O'rmonlar maydonini kengaytirish. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish. Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish. Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish. Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish. Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish. «Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish.

10-mavzu. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish

Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini

yanada mustahkamlash. Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish. Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish. Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli sub'yekt sifatidagi rolini oshirish. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish. An'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.

11- mavzu. Maktabgacha ta'lim va maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etilishi va uning ahamiyati

Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash. Maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish. Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish.

12- mavzu. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini va ta'lim sifatini oshirish istiqbollari

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish. 2022 yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish. To'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish. 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. Davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish. Davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

13- mavzu. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash masalalari.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish. Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-

qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish. Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

14-mavzu. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish. Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

15- mavzu. Ta'lim tizimida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining o'rni va ularning soni ko'paytirish istiqbollari

2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish. Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish. Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o'quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan «Yoshlar shaharchasi»ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini oshirish mavzular

bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminarga tavsiya etiladigan mavzular

1. Kirish. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
3. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish
4. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlarini taminlash
5. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish
6. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.
7. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.
8. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini va ta'lim sifatini oshirish
9. Kadrlar tayyorlash va ta'lim sohasini isloh qilish.
10. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish
11. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.
12. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.
13. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish
14. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.
15. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari va boshqa texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhda alohida o'tkaziladi. Har bir talaba o'qituvchi tomonidan berilgan mavzuni manbashunoslik fani, uning yutuqlari hamda mavzuga oid ilmiy yangiliklar asosida, keng mulohazalar asosida, batafsil konspekt qilishi kerak. Buning uchun o'zi olgan bilimlari va mustaqil o'rganishlari asosida mavzuni yoritishi va mustaqil fikr yuritish olish talab etiladi. Seminar mashg'uloti qizg'in bahs-munozara asosida yoki pedagogik texnologiyaning interfaol usullari yordamida tashkil etilishi mumkin. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida auditoriyaga uzatiladi.

IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ta'limda quyidagi vazifalar bajariladi:

	• Seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rish va uy ishlarini bajarish. • Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasini mazmun mohiyatini o`rganish, tahlil qilish • Seminar mavzulari bo`yicha taqdimotlar tayyorlash.</li> </ul> <p>Fandan nazariy va amaliy mashg`ulotlar o`tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yonaltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o`rgatish, mashqlar bajarish.. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganish.</p>
	V. Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <p>Fanni o`zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida magistrant: Vatanimiz tarixining bugungi kunda isloxotlari tarixiy jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini davriy ketma-ketlikda bilishi kerak; Talabalarda xalqimizning madaniy, ma`naviy merosiga, ilg`or an`analari, milliy qadriyatlari, ahloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg`ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo`shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari ekanligi haqidagi ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak;</p> <p>- Yangi taraqqiyot bosqichlari tarixiy voqealarni o`rganish, ularni ahamiyatini tahlil qilishda birlamchi, asl manbalar bilan ishlash ko`nikmasini shakllanishi kerak;</p> <p>Yangi taraqqiyot bosqichlari jarayonida ta`lim sohasidagi islohatlar, ularni ahamiyati haqida bilimga ega bo`lishi kerak.
3	<p>VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma`ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyixalar; <p>jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
4	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to`la o`zlashtirish, taxlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o`rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va

	topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
5	Asosiy adabiyotlar: 1. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. lex.uz 2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston" . 2021 yil 3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017. 4. Murtozo Raxmatov, Baxriddin Zaripov. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renesans ostonasoda. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. lex.uz 2. Utemuratov M <u>O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati</u>. 2021. Toshkent. Internet saytlari: 1. www. Ziyonet. uz 2. www. edu. uz 3. www. ma'naviyat. Uz
6	Qo'qon davlat univeriteti tomonidan 2025 yil "___" _____ dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
7	Fan/modul bo'yicha ma'sul: O.Bozorov, Qo'qon DU Tarix kafedrasi dosenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Axmedova Rashidaxon Muqimovna "Tarix" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD)
8	Taqrizchilar: T.Nuriddinov Z.Esonov Qo'qon DU, tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Qo'qon DU, tarix kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

